



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 15-fevral, № 34 (8657)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



IJTIMOIIY HIMOYA TIZIMI BO'YICHA TAKLIFLAR KO'RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish
bo'yicha takliflar taqdimot qilindi.

Mamlakatimizda aholining ijtimoiy himoyasiga alohida e'tibor qaratilib, ijtimoiy xizmat turlari va ko'lami kengaytirib kelinmoqda. 2023-yil 1-iyunda davlatimiz rahbarining "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilingan edi. Unga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi.

O'tgan davrda agentlik tomonidan ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi va manzilliligi joylarga chiqib o'rganildi. Bu jarayonda tizimni mahalla darajasida adolatli tashkil etish, to'g'ri moliyalashtirish, og'ir ahvolda tushib qolgan odamlarning ijtimoiylashuviga ko'maklashishda kamchiliklar borligi ayon bo'ldi.

Taqdimotda ushbu muammolarni tizimli hal etishga qaratilgan takliflar ko'rib chiqildi.

Ular ko'ra endi mahalladagi "yettilik" oilalardagi ijtimoiy muammoning sababi,

ularga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlaydi, mavjud imkoniyatlarni baholab, ularni og'ir vaziyatdan olib chiqish bo'yicha ijtimoiy xizmatlarni safarbar qiladi.

"Saxovat va ko'mak" jamg'armasidan yordamlarni oilaning ijtimoiy ahvolidi individual baholash asosida ko'rsatish yo'lga qo'yiladi.

Davlatimiz rahbari bu takliflarni ma'qullab, tegishli hujjatlarni ishlab chiqish, hayotga samarali joriy etish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan nogironlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiya talablarini hayotga tatbiq etishni izchil davom ettirish, jumladan, nogironlari bo'lgan insonlarga ko'maklashish, jamiyatga integratsiya qilish, sifatli protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish zarurligi ta'kidlandi.

O'zA.

Munosabat

QAYERDAKI MAHALLIY KENGASHLAR RIVOJLANSA, O'SHA JOYDA ISLOHOTLAR SAMARADORLIGI OSHADI

O'zbekiston oxirgi yillarda salmoqli yutuq va natijalarga erishdi. Buni shahar va qishloqlarimizning qiyofasi o'zgargani, xalqimiz farovonligi oshgani, Vatanimizning xalqaro maydondagi nufuzi yuksalib borayotgani ham tasdiqlab turibdi. Ammo bugun shu yutuqlarga mahiyo bo'lib qolish mumkin emas. Aksincha, tezkor davr bizdan yanada ko'proq intilishni kutmoqda.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Xalqimizning bizga bildirgan yuksak ishonchi barchamizdan — deputat va senatorlar, vazir va hokimlar, davlat va nodavlat tashkilotlari rahbarlaridan, har bir yurtdoshimizdan belimizni yanada mahkam bog'lab, avvalgidan ikki-uch karra ko'proq g'ayrat va shijoat bilan ishlashni talab etadi".

Prezidentimizning yaqinda imzolangan "Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni ana shu maqsadga yo'naltirilganligi bilan muhim ahamiyatga ega.

Darhaqiqat, so'nggi yillarda mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash, iqtisodiyotni isloh qilish, ijtimoiy sohani rivojlantirish, mavjud global muammolarga yechim topish, barcha jabhada boshlagan islohotlarimizni izchil davom ettirish, tinchlik va xavfsizlikni barqaror ta'minlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, O'zbekistonni kuchli ijtimoiy davlat sifatida shakllantirish, aholisi yuqori turmush

darajasiga ega rivojlangan mamlakatlarga qatoriga olib chiqishga qaratilgan izchil sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Shu maqsadda xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining nazorat faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan huquqiy asoslar yaratilib, hayotga tatbiq etilayotir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari va ijro etuvchi hokimiyat organlari vakolatlari, mahalliy Kengash raisi va hokim lavozimlari bir-biridan ajratilganligi hokimiyat bo'linishiga oid konstitutsiyaviy tamoyilning mahalliy darajada ijrosini ta'minlashda muhim qadam bo'ldi. Natijada xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyati ustidan nazorat funksiyalari kengaytirilib, ularga ko'plab yangi vakolatlari berildi. Ayni chog'da prokuratura, adliya, ichki ishlar, moliya, soliq, ekologiya va sog'liqni saqlash organlari chegarasi



Tabobat

XITOIY IMPERATORINI DAVOLAGAN O'ZBEK TABIBI

Chin yurtida hamyurtimiz asos solgan usul
bugun ham juda omallashgan

Dunyo ilm-fani, xususan, zamonaviy tibbiyot rivojida ulug' ajdodlarimizdan meros sifatida asrlar mobaynida sayqallanib kelayotgan xalq tabobatining o'rni beqiyos. Bu borada birgina Abu Ali ibn Sinoning boqiy merosi va uning Sharq xalqlari tabobati, jahon tibbiyot ilmidagi mavqei esga olib o'tish o'rinnidir.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan keyingi yillarda xalq tabobatini ana shu ezu an'analar va bugungi kun mezonlari asosida rivojlantirish borasida muhim qadamlar tashlandi. Xalq tabobatining zamonaviy tibbiyotga o'zaro uyg'un, bir-birini to'ldiruvchi va mustahkamlovchi faoliyati uchun qonuniy asoslar yaratildi.

Prezidentimiz raisligida shu

yilning 5-fevral kuni o'tkazilgan ijtimoiy sohalardagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan yig'ilishda poliklinika va shifoxonalarda xalq tabobati xonalari, fitobarlar tashkil etishga alohida e'tibor qaratish kerakligi ta'kidlandi. Shifo maskanlarida bemorlarni davolashda xalq tabobati usullaridan keng foydalanish zarurligi haqida tavsiyalar berildi.

Ta'kidlash joiz, davlatimiz rahbarining 2018-yil 12-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida xalq tabobati sohasini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori yurtimizda ushbu sohaning ilmiy asosda rivojlanishi hamda xalqaro miqyosda e'tirof etilishi uchun muhim zamin yaratdi.



QONUN LOYIHALARI NEGA RAD ETILDI?

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining kuni kecha bo'lib o'tgan yalpi majlisida deputatlar tomonidan ikkita qonun loyihasi rad etildi. To'g'rirog'i, mas'ul qo'mitalarning qonun loyihasini birinchi o'qishda konseptual jihatdan qabul qilish to'g'risidagi taklifi yetarli ovoz ololmadi. Bizni kuzatib borayotgan, qonun ijodkorligi jarayoniga befarq bo'lmagan jamoatchilik vakillarida, ijtimoiy tarmoqlar faollarida "O'zi aslida gap nimada edi?", "Nimaga endi birdaniga ikkita qonun rad etildi?", "Qanday asoslar bor edi?" mazmunidagi savollar tug'ilishi tabiiy, albatta.



Muhokama

Birinchi qonun loyihasi bilan O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining yo'l harakati sohasini tartibga soluvchi bir qancha moddalariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish nazarda tutilgan.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning amaldagi 171-moddasi birinchi qismida yo'l harakati qoidalari buzilganligi maxsus avtomatlashtirilgan foto va videotexnika vositalari orqali qayd etilgan taqdirda, transport vositasining mulkdori ma'muriy javobgarlikka tortilishi belgilangan. Taklif etilgan qonun loyihasida ushbu jazoga mazkur huquqbuzarlik uchun transport vositasining mulkdori yoki transport vositasidan fuqarolik-huquqiy tartibda foydalangan shaxs tortilishi taklif etildi.

Tashabbuskorlar tomonidan taklif qilinayotgan g'oya aslida to'g'ri bo'lib, qonun loyihasidan ko'zlangan maqsad ham ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan transport vositasini boshqargan shaxsning o'zini javobgarlikka tortish mexanizmini yaratishdan iboratdir.

Lekin qonun ijodkorlari bu g'oya va maqsadni qonun loyihasida to'g'ri ifoda eta olmagan. Bir jihatdan qaraganda, loyihada belgilangan normalar to'g'riga o'xshaydi. Lekin normaning shunday tahrirda qabul qilinishi amaliyotda qonunni qo'llovchilar, shuningdek, ma'muriy javobgarlikka tortiluvchilar uchun muammolar keltirib chiqarishi mumkin.

Birinchiidan, transport vositasidan

"fuqarolik-huquqiy tartibda foydalanish" tushunchasining ma'nosi birorta qonunda ochib berilmagan. Albatta, bunda ishonchnoma yoki ijara shartnomasi asosida foydalanish nazarda tutilgan bo'lishi mumkin. Lekin fuqarolik-huquqiy munosabatlarning chegarasi yo'q. Masalan, fuqaro o'z mulkdagi transport vositasini shartnoma asosida boshqa shaxsga saqlab turish uchun berishi yoki boshqa shaxsga ijaraga ham berishi mumkin. Ya'ni u transport vositasini umuman boshqarmasligi ham mumkin. Taklif etilayotgan normaga ko'ra bu holatda transport vositasining mulkdori ham, transport vositasini boshqarmagan yuqoridagi shaxs ham ma'muriy javobgarlikka tortilishi muqarrar bo'lib qolayapti.

Shunga ko'ra oldin "transportdan fuqarolik-huquqiy tartibda foydalanuvchi shaxs" degan tushunchani aniqlashtirish lozim bo'ladi.

Ikkinchiidan, qonunda biror-bir javobgarlik o'rnatish o'ta aniqlikni talab etadi. Biroq yuqoridagi qonun loyihasida nazarda tutilgan o'zgartirish va qo'shimcha bilan qonun ijodkori o'ziga shart-sharoit yoki imkoniyat yaratmoqda.

Unga ko'ra 17-moddaning birinchi qismidagi huquqbuzarlik maxsus avtomatlashtirilgan foto va videotexnika vositalari orqali qayd etilgan yo'l harakati qoidalari buzish sodir etilsa, xohlasa transport vositasining mulkdorini, istasa undan foydalangan shaxsni javobgarlikka tortish

imkoniyati yaratilmoqda. Chunki mazkur normada "yoki" degan so'z ishlatilmoqda. Bu esa korruptsiyaga olib kelishi mumkin.

Uchinchiidan, bugungi kunda transport vositalari haydovchilari tomonidan yo'l harakati qoidabuzarligini sodir etganlik uchun "jarima ballarini hisoblash tizimi"ni joriy etish ko'zda tutilmoqda.

Taklif etilayotgan norma qabul qilingan taqdirda kelgusida "jarima ballarini hisoblash tizimi" ishga tushganidan keyin transport vositasida yo'l harakati qoidabuzarligini sodir etganlik uchun jarima ballarini transport vositasining mulkdoriga yoki mazkur transport vositasidan foydalangan shaxsga nisbatan qo'llashga doir norma turlicha talg'in etilib, har xil tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Masalan, hozirgi kunda Oliy Majlisning yuqori palatasida ko'rib chiqilayotgan boshqa qonunga ko'ra transport vositasi boshqaruvi chog'ida bir yil davomida yo'l harakati qoidalarini buzganlik natijasida yig'ilgan ballar miqdori 12 dan oshsa, shaxs haydovchilik huquqidan mahrum qilinishi kerak. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, transport vositasini ishonchnoma asosida boshqarayotgan shaxs qoidani buza, unga ball qo'ymaslik uchun umuman haydovchilik guvohnomasi mavjud bo'lmagan va transport vositasining uni boshqarmaydigan mulkdori ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin.



ULUG' AJDODIMIZGA EHTIROM

Mamlakatimizda o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, dilbar shoir, qomusiy alloma, ulkan davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 541-yilligi munosabati bilan "Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Zahiriddin Muhammad Bobur merosining o'rni va ahamiyati" mavzuida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bo'lib o'tdi.

Shukuh

Xususan, poytaxtimizdagi Adiblar xiyobonida tashkil etilgan anjumanda ziyolilar,

yozuvchi-shoirilar, harbiylar, yoshlar hamda keng jamoatchilik vakillari jam bo'ldi. Dastur avvalida harbiy xizmatchilar va yoshlarning



tantanali saf yurishi o'tkazildi. Shundan so'ng Mirzo Bobur haykali poyiga keng jamoatchilik vakillari ishtirokida gullar qo'yildi.

Tadbirdi Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid kirish so'zi bilan ochib hazrati Bobur qisqa bo'lsa-da, nechog'li ziddiyat va qarama-qarshiliklar, matonat va jasoratlarga boy, sertahlila va sermazmun hayot yo'lini bosib o'tgani barchaga yaxshi ma'lumligi, vaqt o'tgani sari ulug' ajdodimizdan qolgan ulkan ijodiy merosning qadr-qimmati yanada zalvar va salmoq kasb etayotganini ta'kidlandi.



O'zbekiston Respublikasining
QONUNI

Davlat mulkini xususiyashtirish to'g'risida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 5-sentabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2023-yil 24-noyabrda ma'qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi
va qo'llanilish sohasi

Ushbu Qonunning maqsadi davlat mulkini xususiyashtirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Davlat mulkini sud hujjatlari asosida realizatsiya qilish, davlat uy-joy fondini xususiyashtirish, qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiyashtirish (bundan davlat mulkiy majmualarini (korxonalarini), binolar va inshootlarni, qurilishi tugallanmagan obyektlarni yer uchastkalarini bilan birga xususiyashtirish mustasno) O'zbekiston Respublikasining alohida qonunlari bilan tartibga solinadi.

2-modda. Davlat mulkini xususiyashtirish
to'g'risidagi qonunchilik

Davlat mulkini xususiyashtirish to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining davlat mulkini xususiyashtirish to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasining xorijdagi davlat mulkini xususiyashtirish ushbu Qonun va mulk joylashgan davlatning qonunchiligi inobatga olingan holda amalga oshiriladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

davlat ko'chmas mulk obyektlari — davlatga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mulkiy majmualar (korxonalar), binolar va inshootlar, shu jumladan qurilishi tugallanmagan obyektlar;

davlat mulkini xususiyashtirish — davlat mulkini ushbu Qonunda nazarda tutilgan tartibda jismoniy va nodavlat yuridik shaxslarga realizatsiya qilish;

ishtirokchi — omamaviy savdolarida ishtirok etuvchi talabgor yoki uning vakolatlari vakili;

professional maslahatchi — xususiyashtiriladigan davlat mulkini xususiyashtirish jarayoniga tayyorlashni va sotishni, shuningdek u bilan bog'liq bitimlar tuzishni tashkil etish maqsadida jalb qilinadigan, turli yo'nalishdagi maslahat xizmatlari, shu jumladan moliyaviy, investitsiyaviy, iqtisodiy va (yoki) yuridik masalalar bo'yicha xizmatlar ko'rsatadigan yuridik yoki jismoniy shaxs (shu jumladan chet el yuridik yoki jismoniy shaxsi);

talabgor — xususiyashtiriladigan davlat mulki bo'yicha omamaviy savdolarida ishtirok etish uchun ariza bergan jismoniy yoki nodavlat yuridik shaxs (shu jumladan chet el yuridik yoki jismoniy shaxsi);

xaridor — vakolatlari davlat organi yoki uning hududiy boshqarmalari yoxud uning vakolatlari shaxsi bilan ushbu Qonunga muvofiq davlat mulkini xususiyashtirish bo'yicha oldi-soldi shartnomasini yoki birja bitimini tuzgan shaxs yoki uning vakili;

xo'jalik jamiyati — aksiyadorlik jamiyati, mas'uliyati cheklangan jamiyat.

(Davomi 2, 3, 4, 5-betlarda).



O'zbekiston Respublikasining
QONUNIDavlat mulkini
xususiylashtirish to'g'risida

(Davomi. Boshlanishi 1, 2, 3, 4-betlarda).

16) O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 3-yanvarda qabul qilingan "Ayrim davlat organlari faoliyati takomillashtirilishi, shuningdek fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-456-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2018-yil, № 1, 1-moddasi) 2-moddasi;

17) O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-476-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2018-yil, № 4, 224-moddasi) 3-moddasi;

18) O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-fevralda qabul qilingan "Xavfsizlik va mudofaa sohasidagi ba'zi davlat organlari faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-522-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, № 2, 47-moddasi) 3-moddasi;

19) O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-559-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, № 8, 470-moddasi) 1-moddasi;

20) O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda qabul qilingan "Mehnatga haq to'lash,

pensiyalar va boshqa to'lovlar miqdorlarini aniqlash tartibi takomillashtirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-586-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, № 12, 880-moddasi) 1-moddasi;

21) O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 24-dekabrda qabul qilingan "Ba'zi davlat organlarining faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-597-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, № 12, 891-moddasi) 1-moddasi;

22) O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 6-yanvarda qabul qilingan "Davlat boji to'g'risida"gi O'RQ-600-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2020-yil, № 1, 1-moddasi) 28-moddasining 1-bandi;

23) O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-683-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2021-yil, 4-songa ilova) 11-moddasi;

24) O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 17-mayda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida tibbiy-ijtimoiy xizmatlar tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-770-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2022-yil, № 5, 464-moddasi) 2-moddasi.

43-moddasi. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta'minlash

O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.

44-moddasi. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi: hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin; respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari ushbu Qonunga zud bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

45-moddasi. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oy o'tgach kuchga kiradi.

Ushbu Qonunning amal qilishi u kuchga kirguniga qadar davlat mulkini xususiylashtirish to'g'risidagi xabarnomalar joylashtirilgan yoki xususiylashtiriladigan davlat mulkining oldi-soldi shartnomasini tuzish haqidagi takliflar (ofertalar) yuborilgan hollarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti

Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2024-yil 14-fevral
№ O'RQ-907

QAYERDAKI MAHALLIY
KENGASHLAR RIVOJLANSA,
O'SHA JOYDA ISLOHOTLAR
SAMARADORLIGI OSHADI

Bugungi kunga kelib "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan maqsadlar, ya'ni mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini xalqning haqiqiy "ovoziga" aylantirish, hududiy boshqaruvni "aholi manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili asosida to'g'ri qo'yish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu o'rinda aytish joizki, xalq deputatlari mahalliy Kengashlarini tizimlashtirish va funksiyalarini kengaytirish maqsadida ularning davlat hamda jamiyat boshqaruvidagi rolini oshirish, mahalliy davlat hokimiyatini yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda to'g'ri qo'yish, ushbu organlar faoliyatini "Kuchli Kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim" tamoyili asosida tashkil etishga doir qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi.

Farmonda bularning barchasi o'z ifodasini topgan. Ayni chog'da unda Oliy Majlis Senatiga Vazirlar Mahkamasi bilan birgalikda 2024-yil 1-oktabrga qadar O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish vazifasi yuklatildi.

Konsepsiyadagi quyidagi vakolatlar belgilanishi ko'zda tutilmoqda:

- mahalliy Kengashlarning norma ijodkorligi sohasidagi faoliyatini takomillashtirish;
- mahalliy Kengashlar,

ularning organlari va deputatlarning nazorat faoliyatini takomillashtirish bilan birga samarali nazorat tizimini shakllantirish;

- mahalliy Kengashlar tomonidan jamiyat manfaatlariga doir muhim va dolzarb masalalar yuzasidan Oliy Majlis Senatiga takliflar va strategiyalar kiritish mexanizmini ishlab chiqish;
- mahalliy Kengashlar qarorlarini tayyorlashda keng jamoatchilik ishtirokini ta'minlash;
- mahalliy Kengashlar faoliyatini raqamlashtirish va byurokratiyaga qarshi choralarni belgilash;
- mahalliy Kengashlar faoliyatida o'zaro va xalqaro hamkorlikni to'g'ri qo'yish.

Shuningdek, mazkur Farmonda rivojlangan mamlakatlar tajribasidan umumli foydalanish uchun so'z yuritilayotgan konsepsiyani ishlab chiqish jarayoniga xorijiy davlatlar yetakchi ekspertlarini jalb qilish nazarda tutilgan bo'lib, bu o'z samarasini berishi, shubhasiz.

Hozirdan aytish mumkinki, belgilangan ustuvor maqsad va vazifalar mahalliy davlat hokimiyati organlari zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Tabiiyki, xalq vakillari sifatida mazkur topshiriqlar ijrosi o'z vaqtida sifatlil bajarilishini ta'minlashga ko'maklashish biz, senatorlarning ham kundalik vazifamizga aylanadi. Bundan ko'zlangan maqsadimiz esa yagona — mahalliy Kengashlar faoliyatini zamon talabi darajasiga olib chiqishdan iborat. Qayerdaki mahalliy Kengashlar rivojlanisa, o'sha joyda islohotlar samaradorligi o'z-o'zidan oshadi.

Shuhrat CHO'LLIYEV,
Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korruptsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisining o'rinbosari.

QONUN LOYIHALARI
NEGA RAD ETILDI?

To'rtinchidan, Ichki ishlar vazirligi tomonidan ishlab chiqilib, hukumat tomonidan oxirgi uch oyda kiritilgan hamda bitta sohaga tegishli bo'lgan 3 ta qonun loyihasining har birida Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 171-moddasiga konseptual jihatdan uch xil ma'noni anglatadigan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif etilgan.

Bunday holat qonun loyihalarining muhokamasi va qabul qilinish jarayonlarini qiyinlashtiradi. Ya'ni hali oldin qabul qilingan o'zgartirish va qo'shimchalar kuchga kirmasdan turib, yana shu moddaga tuzatish kiritishga olib keladi.

Endi deputatlar tomonidan rad etilgan "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikka tortish tartibini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi ikkinchi qonun loyihasining rad etilishi bilan bog'liq masalaga to'xtalamiz.

Loyiha bilan kiritilayotgan ayrim qoidalarining hayotiy zaruriyati yo'qligi, qolaversa, yuridik jihatdan

tutuvchi normani bekor qilish taklif etilmoqda.

Deputatlarning fikricha, qonun loyihasini ishlab chiqqan tashabbuskor vazirlik aslida fuqarolarga qulay bo'lishi uchun yaratilgan tizimdan tor idoraviy manfaatlarni ko'zlab voz kechishni taklif etmoqda.

Mas'ul qo'mita qonun loyihasini birinchi o'qishda qabul qilishni va uni ikkinchi o'qishga qadar maromiga yetkazishni taklif etgan bo'lsa-da, muhokamalardan keyin qonun loyihasi ovoza qo'yildi hamda yetarlicha ovoz to'plamagani tufayli rad qilindi.

Endi deputatlar tomonidan rad etilgan "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikka tortish tartibini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi ikkinchi qonun loyihasining rad etilishi bilan bog'liq masalaga to'xtalamiz.

Loyiha bilan kiritilayotgan ayrim qoidalarining hayotiy zaruriyati yo'qligi, qolaversa, yuridik jihatdan



to'g'ri rasmiylashtirilmagani bois xalq vakillarining jiddiy e'tiroziga sabab bo'ldi.

Ma'lumki, amaldagi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 138-moddasida "...yo'l'larga ajratilgan mintaqada tegrasida mol boqish" uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Biroq taklif etilgan loyihada yo'l'larga ajratilgan mintaqada uy hayvonlarini boqish yoki ularni qarovsiz qoldirish uchun javobgarlik belgilanmoqda.

Vaholanki, uy hayyoniga mollardan tashqari it, mushuk, tovuq, quyon, o'rdak, g'oz va hokazo kiradi. Shu bois deputatlarning fikricha, loyiha qabul qilinishi kelajakda tushunarsiz va kulgili vaziyatlarni

keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, yo'l'larga ajratilgan mintaqada tegrasiga chiqib ketgan mushuk uchun ham uning egasini topish va javobgar qilish kerak bo'ladi, ya'ni aslida aysbiz bo'lgan shaxslarni javobgarlikka tortishga to'g'ri keladi.

Bundan tashqari, loyiha bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 136 — 138-moddalariga individual harakatlanish vositasini boshqarib borayotgan shaxslarning yo'l belgilari talablariga rioya etmaganligi uchun javobgarlik belgilanmoqda.

Biroq bugungi kunda "individual harakatlanish vositasi" tushunchasi qonunchilikda ochib berilmagan. Shuningdek, hukumat qarori bilan tasdiqlangan Yo'l harakati qoidalarida ham individual harakatlanish vositalarini boshqarish bo'yicha talablar o'rnatilmagani huquqiy jihatdan tartibga solinmagan qoida uchun javobgarlik belgilanishiga olib keladi.

Qonun loyihasidagi yana bir norma haqida to'xtalmoqchiman.

Foto va videovositalar orqali yo'l harakati qoidalarini buzganligi qayd etilgan paytdan e'tiboran 48 soat ichida qoidabuzarlik to'g'risidagi ma'lumotlarni jarima solish vakolatiga ega shaxsga yuborish taklif etilgan. Lekin ushbu normada yana eskicha qoida saqlab qolinib, bunda faqat transport vositasining mulkdorini javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, xolos.

Ushbu qoidani aks ettirish taklif qilingan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 171-moddasiga qonun tashabbuskorlari tomonidan qisqa muddat ichida uch marotaba bir-biriga muvofiq kelmaydigan turli normalarni kiritish taklif etilgan. Bu holat esa deputatlarning mazkur modda bo'yicha uzil-kesil to'xtamga kelishiga to'sqinlik qildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, deputatlar tomonidan qizg'in muhokama etilgan qonun loyihasi uni konseptual jihatdan qabul qilish uchun yetarli ovoz to'play olmasi.

Farhod ASHMATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

KARMANALIK YOSHLAR BILAN
UCHRASHUV O'TKAZILDI

Shu kunlarda Oliy Majlis Senati a'zolari joylarda bo'lishib, yoshlar bilan muloqotlar o'tkazmoqda. Xususan, Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi a'zosi Ulug'bek Fayziyev tomonidan "Yoshlar — kelajagimiz" jamg'armasi Navoiy viloyati filiali bilan hamkorlikda Karmana tumani yoshlari bilan uchrashuv tashkil etildi.

Senator va hayot

Unda ta'kidlanganidek, bugun mamlakatimiz aholisining 60 foizdan ko'pini yoshlar tashkil etadi. Demak, ularning sifatlil ta'lim olishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va yoshlarga kasb-hunar o'rgatish tizimini takomillashtirish, shuningdek, ish o'rinlari yaratish muhim vazifalardan hisoblanadi. "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasida ham bu boradagi ishlarga alohida o'rin ajratilgan.

Senator yigit-qizlar bilan suhbatlashar ekan, ularga yaratilayotgan sharoitlar, tadbirkorlik sirlari haqida alohida to'xtalib, bugungi yoshlarga havasi kelishini, yaratilayotgan imkoniyatlardan umumli foydalangan holda o'z oldilariga qo'ygan reja va maqsadlari sari dadil odimlash lozimligini ta'kidlab o'tdi. Uchrashuv davomida talaba va yoshlar o'zlarini qiziqitirgan savollarga javoblar olishdi.

"Xalq so'zi".

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi Qo'mita a'zosi I.Korjikovaga otasi

Ivan LYASHENKOning vafoti munosabati bilan chquur hamdardlik izhor etadi.

"Xalq so'zi".

